



AMET TARIKOVNING QORAQALPOQ BAXSHICHILIGIDA TUTGAN O‘RNI

Davletmuratova Amangul

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy
musiq san’ati instituti III bosqich talabasi

Zafar Hayitov

Ilmiy rahbari: UzMMSI “Doston
ijrochiligi” kafedra mudiri

Annotatsiya: Qoraqalpoq baxshichiligi haqida qisqacha ma’lumot, Amet Tarixovning bolaligi, hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan, Amet Tarixov ijro etgan “Bazergen” dostoni.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq baxshichiligi, qoraqalpoq dostonlari, qoraqalpoq nomalari, “Bazergen” dostoni.

Аннотация: Краткие сведения о каракалпакской благотворительности, детстве, жизни и творчестве Амета Тарихова, обсуждается эпос «Базерген» в исполнении Амета Тарихова.

Ключевые слова: каракалпакская благотворительность, каракалпакские эпосы, каракалпакские имена, эпос «Базерген».



Abstract: Brief information about Karakalpak bakhshi, childhood, life and work of Amet Tarikhov, the epic “Bazergen” performed by Amet Tarikhov is discussed.

Key word: Karakalpak bakhshi, Karakalpak epos, Karakalpak names, epic “Bazergen”.

Xalqimizda ota bobolarimizdan bizgacha og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan madaniy merosimiz bo‘lmish Baxshichilik san‘ati hozirda yaxshi rivojlanib kelmoqda. Maqolada men aynan bularga misol bo‘la oladigan Qoraqalpoq baxshichiligimizning katta ustoz, xalq qo‘shiqlarini va dostonlarini kuylagan mohir baxshi Amet Tarixovning hayoti va ijodiga toxtalib o‘tdim.

Qoraqalpoqlar asrlar davomida o‘zining jon ozig‘i bolmish qo‘shiqchilar va sozandalar, baqshi jirovlariga, qissaxonlariga xalq kompozitorlariga o‘xshagan ajoyib talantlarga boy bo‘lgan. O‘zining baland ovozi, xalqning yuragidan o‘rin olgan Qoraqalpog‘istonga mehnati singan artist, baxshi Amet Tarixovning ustoz shogirdlari haqida so‘z etamiz. Qoraqalpoq xalqining mohir baxshisi Amet Tarixov 1923-yili Qoraqalpoqstonning Qarao‘zek tumanining, eski Kalinin nomidagi savxozining ichiga kiruvchi Esim o‘zek bo‘yidagi Sag‘anay quyin qishlog‘ida tug‘ilgan.[4] Otasining kichik chorvachiligi bo‘lgan, lekin oilasi juda kambag‘al bo‘lganligi sababli, yaxshi yashash uchun dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Amet Tarixov mullo Xalqabadning Ichonqala yoniga ko‘chib kelib, Qumo‘zek eshon madrasasidagi Baxauiddin eshonga qo‘l berib supi bo‘ladi. Keyinchalik Amet Tarixov Ichonqalada maktab mullo bo‘lib bolalarni o‘qitgan. Amet Tarixov ota-onasidan erta ajralganidan keyin qarindoshlarining qo‘lida tarbiyalanib qishloqda cho‘pon bo‘lib mol boqqan. U ota bobolarida baxshichilik qobiliyati bo‘masa ham qishloqqa kelgan baxshi jirovlarni kuni boyi uxlamastan eshitgan. Shu davrlarda, ayniqsa 20-yillarning ohiri, 30-50 yillarning baxshi-jirovlarchilik san‘ati o‘zining milliy



klassika formasini saqlab qolgan edi. Jirov baxshilar “Qur” (qoraqalpoqlarda jirov baxshilar yig‘ilib ortaga o‘t yoqib qo‘shiq va dostonlar aytishib yig‘ilishi) yig‘ib, katta yig‘inlarda tong otguncha aytishadigan bo‘pti. Shu baxshi jirovlarning ayniqsa, Izimbet jirov, Abdirasul jirov, Esjan baxshi, Torebay baxshilar Amet Tarixovga katta ta’sir qoldirdi. Shu zamondagi baxshi jirovlarning “Qur” yig‘ib aytishlari shu zamonning radio televideniyesi bo‘lib xizmat bajargan. Ular Qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatini, madaniyatini saqlab rivojlantirishda, og‘ir turmush qiyinchiliklarini yengishda ayniqsa, urush yillari xalqimizni Vatanga sodiq fidoiy qilib tarbiyalashda katta xizmatlar qilgan.

Amet Tarixovning havaskorlar to‘garagidan o‘rganib va yaxshi ko‘rib aytadigan qo‘shiqlari: “Sanali keldi”, “Ala qayis” shular bo‘lgan. Amet Tarixov 1940-yili 5-sinfni bitirib kolxozga tabelchi bo‘lib ishga kiradi. O‘sha yerdagi yoshi katta opalarning dakkilarini yeb ko‘p narsalar o‘rganadi. U opalariga tushlik paytlari qo‘shiqlar aytib berar edi. U faqatgina tushlik paytlarigina emas, ishdan qaytayotganda ham aytib berar edi. 1941-yili 22- iyunda ko‘p yomon xabarlar olib kelindi va urush boshlanib ketadi. O‘sha paytda Amet baxshining xalqqa madaniy yordam beradigan va quvonch bag‘ishlaydigan qo‘shiqlari. Qiyos jirovning “Alpomish” ni aytgani, undan keyin Esjan baxshi, Japaq baxshilarning “Go‘ro‘g‘li” dostonining aytgani katta yordam bo‘lgan. Amet Tarixovning armoni xalq baxshisi bo‘lish edi. Shu kunlarda yani xalqning bo‘shiga yomon kunlar tushgan bir paytda 1943-yilning sentyabr oyida frontga ketadi. U frontga ketayon bo‘lsa ham qo‘shiq aytishini toxtatmaydi. U soldatlarni orasida “Sanali keldi”, “Ala qayis”, “Nalish” “Kelte nalish” nomalariga solib qo‘shiqlar aytganida hammani quvonchga solgan. U 1943-yilning sentyabr oyidan 1944-yilgacha harakat qilib kelayotgan Armiyaning Belarussiyadagi 820-otuvchilar polkida xizmat qiladi. Bitevskda ko‘zidan yarador bo‘lib, 1944-yilning iyun oyida urushdan qaytib keladi. [3.79.]

Amet Tarixovni qishloqda yurgan qishloq oqsoqoli baxshichilikga qiziquvchiligi kuchli, uquvli, choqqon bo‘lganligi sababli qishloqqa kelgan katta baxshi jirovlarga o‘t



yoquvchi qilib qo‘ygan. Shunday kunlarning birida, Esjan baxshi shogirdi Qurboniyoz bilan kelganida qishloq oqsoqoli Amet Tarixovni shogirdlikga olishni so‘ragan. Shunda Esjan baxshi sinash uchun: -Agar manga shogird bo‘lsang daryodan muz tashisan degan. Amet Tarixovga: Undanham qiyiniga roziman, faqat shogird bo‘lsam bo‘ldi degan. Esjan baxshi shunda baxshi Qurboniyozga: Bu bola bo‘ladigan bola ekan, o‘zingga shogirdlikga ol, degan ekan. Ana shundan boshlab jarangdor ovoz, aytuvchi Qurboniyoz baxshining shogirdi bo‘lgan. Qurboniyoz bola atoqli Esjan baxshining shogirti edi. [АЙЫМБЕТОВ: 2.168] Amet Tarixovham ko‘pgina shogirdlar tayyorlagan. Amet Tarixovning birinchi shogirdi chimboyli Qayipnazar Reymov, bo‘ldi. Ikkinchi shogirdi Taxiyyotoshli Qong‘irotdoy Jaqsimurotov va Jumamurat Nazarov, Xojaylidan Qalbay Qaljanovlar bo‘ldi. Ularning magnit lentasiga va gramplastinkaga yozib olingan qo‘shiqlari bor. Amet Tarixovning shogirdlari ustozidan oq potihasin olgan. U shogirdlariga kuy, qo‘shiqlarini o‘rgatib bo‘lib toylarga oborib ularga navbatma- navbat aytqizar edi. Amet Tarixovning ustози Qurboniyoz u haqida bunday degan: “Amet Tarixov qoraqalpoq baxshichiligini xalqqa juda tushunarli qilib, yani adabiychalab va o‘rganganlarini qayta ishlab aytgan baxshining biri” deb aytgan. U Taxtakupir, Qorao‘zak, Chimboy, Kegayli tumanlarida toylarda ko‘pgina qo‘shiqlar aytgan. U xalqqa tanilgan baxshi bo‘lib yetiladi. Keyin u 1952-yili Nukus shahriga ko‘chib keladi va 1956-yilidan boshlab Respublika filarmoniyaga baxshi bo‘lib ishga kiradi. U 1957-yili Toshkentda o‘tkazilgan qoraqalpoq madaniyati va adabiyotining dekadasining qatnashuvchisi bo‘ladi. [4.6.] Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarini yaxshi aytgani uchun O‘zbekiston SSR Yoqari Soveti Prezidyumida Faxriy yorliklar bilan mukofatlanadi. U Qoraqalpoq baxshichiligida san‘at sohasida katta hissa qo‘shgani uchun “Mehnati singan artist” nomli unvonga ega bo‘ladi. Uning birnecha qo‘shiqlari plastinkalarga yo‘zib olingan. Ulardan “Sa‘udigim”, “Eshbay”, “Go‘r qiz” qo‘shiqlarini aytsa bo‘ladi. Amet baxshining sevib aytadigan dostonlaridan biri bu Qirmondali dostoni. Bu aytgan dostoni katta ustozlardan keying mukammal dostonlarning biri bo‘ldi. Shu qator



Amet baxshi “Go‘ro‘g‘li” turkumidan “Bazirgon” dostonini ham mukammal darajada aytgan. Amet Tarixov shu qatorda “Oshiq G‘arib Shohsanam” va “Yusuf-Axmet” dostonlarini mukammal darajada aytib hozirgi kungacha yoshlarimizga yetib kelgan. Baxshining sevib aytadigan yana bir dostoni “ Sayotxon Hamra”. Bu dostonni uning ustozlari Qurboniyoz ham va uning ustozlari Esjan baxshi ham sevib aytadigan bo‘lgan. Bu dostonidagi ishq-muhabbat va yumorga tola qo‘shiqlari yengil, ko‘ngilga yoqadigan syujet detallari, tinglovchini zeriktirmastan qiziqtirib o‘tiradigan kompozitsiya, Aqimbet, Musa an‘anasidan boshlab qo‘shiqlarga qoyilgan qoraqalpoq xalq nomalari bu dostonni Amet baxshi aytganida o‘zgacha eshitiladi. Haqiqatdan ham, har bir dostonni harxil baxshi aytganida o‘ziga xos ta’sir qoldiradi. Amet Tarixov qoraqalpoq baxshichiligini yanada rivojlanishiga, xalqqa aniq va adabiy turda va yanada keng yo‘yilishiga katta hissa qo‘shganligi yaqqol ko‘rinib turadi. Osha paytlarda toylarda faqat baxshilar kuylagan bo‘lsa hozirda bunga zamonaviy artistlar va ansambllar qo‘shilgan. Lekin hozirda oldingi davrlardagidek “Qur” bo‘lib qo‘shiq va dostonlar aytish hozirda toqtatilganligi bilan Mustaqilligimizning sharofati bilan 1990-yillardan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Muxalles” milliy dutorchilar ansambli, Esjan baxshi, Amet baxshi nomidagi musiqa maktablar, Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktablarida baxshichilik bo‘limlari o‘chilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020-yili esa O‘zbekistonda ilk marotaba Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati intitutida “baxshichilik va dostonchilik” ta’lim yo‘nalishlari o‘childi. Bu biz uchun juda quvonarli bo‘ldi. Bu bilim yurtida baxshichilik yo‘nalishi bo‘yicha Zafar Hayitov, Injigul Saburova, Oygul Ahmedova, Botir Motyakubov, Begzod Safarov, Feruz Narmatov, Ilhom Norov, Iqlasbay Moyanov, Rasulbek Abdurahmonov, Zinatdin Nuratdinov, Dinara Nuratdinovalar dars berib kelmoqda. Eng quvonarlisi esa hozirda bu institutdan aynan qoraqalpoq baxshichiligidan birinchi qaldirg‘ochlarimiz bitirib chiqdi. Ulardan: Tanirbergenov Atabek, Umirbekova Maxsuma, Karimbergenova Juzingul kabilar va hozirda Tolibaeva Asiya, Sarsenbaeva



Ulzada, Jubanov Begis, Davletmuratova Amangul, Qarlibaeva Azada, Saparbaeva Raushan va Quanishbaeva Devora kabi yosh og‘il qizlarimiz o‘qib taqsil olmoqda. Ana shunday o‘quv maskanlari ko‘paygani, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.04.2018 yildagi 304-sonli “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham bizning baxshichiligimizni yanada rivojlanib avloddan avlodga yetib kelishiga katta sabab bo‘ladi. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adamboeva T, Revolyusiyaga shekemgi qaraqalpaq muzikasi. No‘kis, 1976.
2. Q. Ayimbetov, Xaliq Danalig‘i, “Qaraqalpaqstan baspasi”, No‘kis, 1968.
3. Adambaeva T. Qaraqalpaq sovet muzikasini ‘ tariyxinan. Nukus “Qaraqalpaqstan”, 1985.
4. Qoraqalpoq xalq baxshisi Amet Tarixovning 100 yilligiga bag‘ishlangan “Xalq donoligita’lim va tarbiyaning manbayi” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallar toplami. Nukus 2023.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>.